

RESEARCH ARTICLE

Najmiddin Komilov As A Researcher Of Ogahiy's Translation Studies Activities

Abdurahim Mannonov

Professor, Doctor of Philological Sciences, Honored Youth Mentor of Uzbekistan Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 01-03

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article examines the formation, major representatives, and scholarly and literary heritage of the nineteenth-century Khorezm School of Translation, which occupies a significant place in the history of Uzbek translation studies. It analyzes the translation activities of Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Agahi, Bobojon Sanoi, Komil Khorezmi, Qutb Khorezmi, and Mirzo Bayani, as well as the artistic and theoretical value of translations from Persian, Arabic, and Ottoman Turkish into Uzbek. Special attention is given to the academic research initiated in the 1980s under the leadership of Ghaybullat As-Salom and to Najmiddin Komilov's doctoral dissertation on the history of the Khorezm translation school of the nineteenth century. The article emphasizes Agahi's translation principles, his contribution to the development of the Uzbek literary language, and the necessity of further comprehensive studies based on modern translation studies methodologies.

KEY WORDS

Khorezm Translation School, nineteenth-century translation studies, Muhammad Rizo Agahi, Najmiddin Komilov, literary translation.

INTRODUCTION

O'zbek tarjimonchilik tarixida XIX asr Xorazmtarjimonchilik maktabi alohida o'ringa ega. Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy, Bobojon Sanoiy, Komil Xorazmiy, Qutb Xorazmiy, Mirzo Bayaniy kabilar bu ulkan Xorazm tarjimonchilik maktabining yirik darg'alari edilar. Bu tarjimonchilarning mashaqqatli ijodiy mehnatlari bois yuzdan ziyod fors, arab, usmonli turk tillaridan amalga oshirilgan katta xajmli tarixiy, diniy, falsafiy tazkira asarlar, lirik shevalar va etik dostonlar o'z vaqtida xalqimizda madaniyatining salmoqli merosiga aylanib ulgurgan edilar. Ammo ilmiy adabiyotda bu tarjima maktabi qoldirgan merosni zamonaviy tarjimonchilik me'zonlari asosida maxsus yaxlit monografik darajada o'rganish masalasi XX asrning 80-yillarida O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi

ToshDU) qoshida ochilgan. Yangi tarjimonchilik kafedrasining asoschisi ulkan tarjimon olim G'aybullat As-Salom domlining bevosita tashabbusi va rahbarliklarida ilk bor qo'l urildi. O'sha davrdagi kafedraning yosh dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Najmiddin Komilov fors va o'zbek tilining iste'dodli mutaxassisi sifatida aynan G'aybullat As-Salomning say-harakatlari va rahbarliklarida XIX asr Xorazm tarjima maktabi tarixi tipologik va qiyosiy masalalar mavzusida doktorlik ishini boshlab, uni 1988-yilda muvaffaqiyatli himoya qilgan edi. Himoyada men ham ishtirok etgan edim. Dissertatsiyaning rasmiy annotatsiyalari yirik olimlarimiz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, f.f.d., professor Aziz Po'latovich Qayumov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, f.f.d., Yuriy Dmitrevich Levin va f.f.d., professor

Botirxon Valixo'jayevlar dissertatsiyasi juda yuqori baho berganlari, ushbu tadqiqotning o'zbek tarjimashunosligining yirik yutug'i sifatida tavsiyalanganliklari esimda. Men bugungi konferensiyada e'lon qilingan mavzuyim bo'yicha so'zga chiqish munosabati bilan Najmiddin akaning ushbu doktorlik dissertatsiyalari bo'yicha e'lon qilingan bir qator maqolalari va avtoreferatini ko'zdab kechirib chiqdim va bu olimimiz darhaqiqat, tarjimashunosligimizga oid juda yirik va dolzarb tadqiqotni amalga oshirganliklarini yana bir bor guvohi bo'ldim. Olim asosiy e'tiborni Munis, Sanoiy, Komil, Mirzo va Ogahiyning tarjimonlik faoliyati ular amalga oshirgan. Tarjimalarning ilmiy badiiy saviyasi, uslubi va mahorati tajribalarini birma bir sinchiklab tahlil etganlar fanni va bu yo'lda Toshkent, Dushanbe, Moskva va Leningrad qo'lyozma janrlarda saqlanayotgan yuqoridagi mualliflarning tarjimalarining qo'lyozma shaklidagi nusxalarini o'rganishda juda katta mehnat qilganliklarini guvohi bo'ldim.

Jumaladan olim zikr etilgan fanlarda saqlanayotgan quyidagi manbalarni tahlilga tortgan edilar: Sa'diyning "Guliston", Husayn Voiz Koshafiyning "Anvori suhayli" va "Ahloqi muhsiniy", Ali Safiyning "Latoif ut-Toif", Zayniddin, vosifiyning "Badol ul-Vaqol", Mumtoz farohiyning "Mahfiaro" (ziynatlangan to'plamlari), Zohir Kirmoniyning "Vomiq va Uzro", Muhammad Vorisning Zubdatul-Hikoyat", Faxri Xiraviyning "Xaft kishvar", Muhammad Fuzuliyning "Xaft jom" va yana bir necha tarjima ko'rinishidagi manbalar tadqiqotga tortilgan edi. Olimning kuzatishicha, XIX asr doirasida Xorazmda amalga oshirilgan tarjimalarning umumiy soni 120ta bo'lib, ulardan 31tasi badiiy asarlar, 29tasi tarixiy va memuar asarlardir. Jumladan, faqat Muhammad Rizo Ogahiy bevosita Xon Muhammadrahim Ya'ni Shoh Feruzning topshirig'i va moddiy ko'magi tufayli 19ta yirik asarlarni tarjima qilganligi takidlanadi va Ogahiyning birnecha tarjimalarining ilmiy, badiiy saviyasi haqida, jumladan, bu buyuk adibimizningtarjima ishiga juda kata ma'suliyat bilan yondashganligialohida qayd etiladi. Ogahiy, darhaqiqat, o'z davrining yirik shoiri va olimi va tarjimoni o'laroq XIX asr madaniy-adabiy muhitimizning favqulodda hodisasi hisoblanadi va uning tarjimalari boshqa tarjimalar uchun kata tajriba maktabi namunasini ham o'tagan.

Najmiddin aka garchi Ogahiyning barcha tarjima asarlarini to'liq tahlilga tortmagan bo'ldsada, lekin uning eng yirik tarjimalari va ularni oshirish jarayonida erishgan yuksak tarjimaning mahoratining o'nlab karralarini jumladan,

frazologizmlar, badiiy san'atlarni o'rinli ag'darish aruzli ritm, asarlar tilining o'ziga xosligini saqlab qolish, muallif uslubini qayta tiklash, kabi masalalar haqida so'z yuritiladi. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, Najmiddin aka Ogahiy tarjimalarining barcha qirralarini ochib berishga xususan uning barcha tarjimalarini tahlilga tortishni maqsad qilib qo'yilgan va u kishi bu ishni kelgusida qator tarjimashunos amalga oshirishga umid bildiradi.

Lekin, bizga ma'lumki, Ogahiyning, umuman XIX asr Xorazm tarjima maktabining yirik vakillari amalga oshirib ketgan tarjimalarining talaygina qismi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek birgina Ogahiyning 19ta yirik tarjimalaridan faqat bir nechtasigina tarjimashunoslarimizning diqqatini jalb qilgan.

Nazarimizda, endilikda Xorazm tarjima maktabining yuqorida zikr etilgan vakillarining har birining tarjimonlik faoliyatlari va tarjimalarining to'liq tahlilini alohida-alohida monografik tadqiqotlar darajasida amalga oshirish vaqti keldi. Ma'lumki, Muhammadrahimi Soniy hukmdorligi davrida Xorazmda 82ta olim va shoir tarjima bilan shug'ullangan bo'lib, ular 50dan oshiq fundamental asarlarni asarlarni o'zbek tiliga o'g'irganlar. (qarang: Jumaniyoz Sharipov O'zbekistonda tarjima tarihidan, T. 1965, 17-bet). Btarjimalarning sardori bo'lgan Ogahiyning Jomiyga tegishli "Yusuf va Zulayxo", "Salmon va Ibsol", "Xaft va Avrang", "Bahoriston" va "Guliston", Kaykovusning "Qobusnoma", Koshifiyning "Ahloqi Muhsiniy", Badriddin Hiloliyning "Shoh va Gado", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mixolidning "Ravzat us-Safo", Nizommiddin Ahmadning "Taboqoti Akbariy" va yana 8ta tarjimasining Ogahiyning tarjimonlik san'atining to'liq ilmiy tahlili o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi.

Ogahiy o'z tarjimalarida qanday prinsiplarga amal qilgan, uning uning barcha tarjimalaridagi mahorati, tarjimaadagi san'atkorligi nimalarda ko'rinadi, uning originalga munosabati yoki nasriy tarjimalarda o'sha davr o'zbek adabiy tilining foydalangan, asl nusxadagi tarixiy nasriy uslub o'zbek tiliga o'z ko'rinishini olgan, hikoya qilinayotgan voqeaning ruhi, aslidagi nasr-nazmni almashib kelishi yoki saj'li nasrni qayta tiklanishi nasrriy nutqdagi behisob tamsil va hikmatlar, so'z oyinlari istioraviy va mubolag'aviy san'atlarni o'zbekkcha muvofiq variantlarini toppish va yana ko'plab masalalar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, Najmiddin Komilovning dissertatsiyasi XIX asr Xorazm tarjimashunoslik maktabining, shu jumladan, Ogahiyning tarjimonlik faoliyatiga oid qator Xususiyatlari yoritib berilgan. Shu bilan birga Ogahiyning o'z asarlari va ulkan tarjimonlik mehnatining xalqimizning ma'rifatini oshirish, qo'shni xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarimizni mustahkamlashga xizmat qilganligi bilan birga, o'zbek adabiy tilini tarjimalari orqali boyitish, rivojlantirishga mumtoz nasrimizni taraqqiy ettirishga, tilimizning imkoniyatlarini ilmiy va badiiy qudratini namoyish qilishga, o'zbek tarjima-chiligi madaniyatining saviyasini ham nazariy, ham amaliy yuksalishiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilganligi borasida qator tadqiqotlarni amalga oshirish, Ogahiy fenomenini xalqimizga yanada chuqurroq yetkazishga xizmat qilishi shubhasizdir.

References

- [1] – Najmiddin Komilov. Bu qadimiy san'at. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
- [2] – Najmiddin Komilov. Tafakkur karvonlari. Toshkent: „Ma'naviyat“, 1999
- [3] – Ochilov, E. (2024). НАЖМИДДИН КОМИЛОВ–ТАРЖИМАШУНОС ВА ТАРЖИМОН. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(27), 29-35.
- [4] – Haydarovich, O. B. (2024). Najmiddin Komilov's work as a translator and translation studies. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(11), 4-7.